



**“OLIIY TA’LIM MAZMUNIGA
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman
MATERIALLARI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIK TA'LIM FAKULTETI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

**“OLY TA'LIM MAZMUNIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

2023 yil 27 may

BUXORO-2023

UO‘K 37.01

KBK 65ya7 88ya7

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 39-son bayoni 20-bandi birinchi xatboshisida belgilangan “2023-yilga mo‘ljallan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar” asosida 2021 yil 27 may kuni Buxoro davlat universitetida “Oliy ta‘lim mazmuniga zamonaviy yondashuvlar” mavzusida o‘tkazilmoqda. Anjumanning maqsadi - mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta‘lim sifatini oshirish, pedagogik ta‘lim sohasida ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etish, pedagogik ta‘lim infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda Respublikada ushbu sohada erishilgan ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq qilish hisoblanadi.

Taqrizchilar:

M.H.Maxmudov, pedagogika fanlari doktori, professor

B.B.Ma‘murov, pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay‘ati:

Sh.Sh.Olimov, B.R.Adizov, Sh.X.Samiyeva, O.R.Ortiqov. Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Pedagogika kafedrasi dotsenti B.T.Jo‘rayev

- musiqa va badiiy ijodning turli ko'rinishlarining o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda, murakkab xarakterdagi muammolarni o'rganishga talabalarni jalb qilish;
- ta'lim muassasalarini tashkil etishda fanlararo integratsiyani rivojlantirish;
- maktab o'quvchilari bilan musiqiy ishlarni takomillashtirish yo'llarini izlashga qaratilgan talabalar ilmiy laboratoriyalari tizimini rivojlantirish;
- musiqa va pedagogik kadrlarni ilmiy-tadqiqot tayyorlash muammolarini hal etish, qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirishda tajriba almashish sohasida oliy o'quv yurtlariaro hamkorlikning aniq tizimini yo'lga qo'yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1 . Абдуллин Э. Б. Модель методологической подготовки учителя музыки //Методологические проблемы музыкальной педагогики: Материалы межреспубликанской научно-практической конференции. М. : МГПУ им. В.И. Ленина, 1991. С. 108 – 112
2. Пичугина Л.Н. Исследовательская деятельность в подготовке будущих учителей музыки / Л. Н. Пичугина ; ФГБОУ ВПО «Урал. гос. пед. ун-т». — Екатеринбург, 2015. — 169 с.
3. Нуруллаев Ф. Г. Композиционный и исполнительский процесс в музыке //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 576-581.

“O'ZBEK MUSIQASI TARIXI” FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Nurullayev Farrux Gaybulloyevich,

Buxoro davlat universiteti “Musiqqa ijrochiligi va madaniyat” kafedراسи dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Bugungi kunda inson faoliyatining ko'plab sohalari, jumladan, ta'lim ham turli xil yangiliklarni joriy etish orqali ko'proq darajada rivojlanmoqda. Garchi innovatsiya va ta'limning umumiy jihatlari ko'p bo'lsa-da, ta'limga innovatsion usullarni joriy etish unchalik ham oson emas. Buning sababi shundaki, innovatsiyalar yangi g'oyalarni ishlab chiqarish va ularni jamiyatga tatbiq etish sifatida, o'z mohiyatiga ko'ra konservativ bo'lgan ta'lim ijtimoiy instituti bilan murakkab, ziddiyatli munosabatda bo'ladi.

Musiqa ta'limidagi innovatsiyalarni tadqiq etish va qo'llash masalalariga ko'plab musiqashunoslar (E.B. Abdullin, D.B. Kabalevskiy, V.V. Medushevskiy, G.M. Tsipin, L.V. Shkolyar va boshqalar) ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar. Mualliflar musiqa ta'limi jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb umammolari ekanligini ta'kidlab o'tganlar. Biroq, o'qituvchilarning amaliyotida o'qitishda an'anaviy, umume'tirof etilgan metod va yondashuvlar ustunlik qiladi; qo'shimcha ta'lim o'qituvchilari tomonidan innovatsion o'qitish usullarining ahamiyatini yetarli darajada baholamaslik; an'anaviy ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'z-o'zidan

bilim olish imkonini beruvchi asosiy kompetensiyalarni egallash uchun mo'ljallangan imkoniyatlarning yetarli emas.

Innovatsiya tushunchasining o'zi birinchi marta XIX asrda ilmiy tadqiqotlarda paydo bo'lgan. "Innovatsiya" tushunchasi XX asr boshlarida avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida "innovatsion birikmalar", iqtisodiy tizimlar rivojlanishidagi o'zgarishlarni tahlil qilish natijasida qo'llanilgan. Pedagogik innovatsion jarayonlar G'arbda taxminan 1950-yillardan boshlab maxsus o'rganish predmetiga aylangan.

1980-yillarda N.Yu.Postalyuk ta'kidlaganidek, pedagogikada innovatsiya muammosi va shunga mos ravishda uning konseptual ta'minoti ham maxsus tadqiqot ob'ektiga aylandi [2].

V.Ivanchenko, V.Lazarev, I.Miloslavskiy, M.Potashniklarning ishlariga asoslanib, biz innovatsiya deganda har xil turdagi yangiliklarni yaratish, ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek ularni qo'llaniladigan takomillashtirilgan mahsulot ko'rinishida o'zgartirishni tushunamiz.

Oliy ta'lim tizimida musiqa ta'limida an'analar va innovatsiyalarni birlashtirish tendentsiyasi mavjud. Musiqa ta'limi muammolarini hal qilishning yangi yondashuvlarni, birinchi navbatda, musiqa o'qitishning maqsadlari, mazmuni va usullarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq edi. Ilg'or musiqa o'qituvchilarining ijodiy merosida targ'ib qilingan musiqa ta'limi metodlari bir tomondan musiqani san'at turi sifatida idrok etishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, inson tabiatini hisobga olishga, uni rivojlantirishga qaratilgan edi.

O'qituvchilar va talabalar faoliyatining xilma-xilligi didaktiklarni ushbu kontseptsiyani boshqacha talqin qilishga olib keladi va shu asosda ularni turli xil o'qitish usullarini ajratib ko'rsatish lozim bo'ladi. "O'zbek musiqa tarixi" fanini o'qitishning zamonaviy pedagogik usullariga doir ko'plab qo'llanmalar mavjud, bunday uslublarni ilg'or musiqa o'qituvchilarining o'zlari kashf qilganlar va ular yaxshi samara bermoqda. Xususan, "mavzu qanday bayon qilganda uning necha foizi o'quvchi yodida saqlanadi, u tomonidan o'zlashtiriladi?" degan tabiiy savolga javob topish maqsadida o'tkazilgan ma'ruzalarning dialog shaklida olib borilishi tajriba yakunida bugungi o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari o'sib borayotganini ko'rsatmoqda. Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalariga "Musiqa o'qitishning innovatsion texnologiyalari" fanini o'qitishda "Aqliy xujum", "Juftlikda ishlaymiz", "Musiqani top", "Raqamlarni tanla", "Xotira charxi" va boshqa usullarni qo'llash jarayonida yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

"O'zbek musiqa tarixi" fanini o'qitishda talabalarga dars yakunida kelgusi darsgacha intellektual savollarni tuzib, unga nom qo'yish topshirig'iga javob olinishi ham samarali natija beradi.

Talaba mavzu yuzasidan o'rtoqlari, ustozlari bilan o'zi muloqotga kirishishi, amaliy mashg'ulotlarda qatnashishi, darsdan olgan bilimlarini gapirib bera olishi, ayniqsa vaqtning qadriga yetishi, ya'ni berilgan imkoniyatida ko'proq manbalar haqida fikr yuritishi va nihoyat baholash hamda rag'batlantirish jarayonlarida ham faol bo'lishi kerak. Ana shunda olingan bilim mustaxkam bo'ladi. Turli uslublarni

o'rganib, taqqoslab, hamkasblar bilan fikrlashib, har bir ustoz o'z uslubini yarata oladi .

Musiqa o'qituvchisi o'quv va tarbiya ishlarini olib boradi. U faqatgina keng bilimga ega bo'lib qolmay, o'zini fanini ham yaxshi bilishi lozimdir. Bolalarni musiqa san'ati bilan tarbiyalashi, dunyoqarashi, fikrlashi, tushunchasi birinchi darajali ahamiyatga egadir. Musiqa kishi xissiyotini ayniqsa emotsional estetik xissiyotini aktiv rivojlantiradi.

Musiqa o'qituvchisi yaxshi sozanda va yaxshi san'atkor bo'lishi lozimdir. Musiqa asbobida yaxshi chalish, ijro eta olish, yaxshi ovozga ega bo'lishi, notaga qarab yaxshi ijro etish bolalar qobiliyatini ajrata bilishi lozimdir. Musiqa o'qituvchisi musiqa asbobda yaxshi ijro etishni juda muhimligi quyidagicha ko'rsatiladi. Birinchidan: Jonli ijro etish –Sinfda kayfiyatni yaxshilaydi.

Ikkinchidan: Jamoa bo'lib (xor) ijro etayotganda hohlagan epizodni yoki (taktik) jumlani qaytarish.

Uchinchidan: Musiqa asbobida ijro eta oladigan musiqa o'qituvchisi o'z tarbiyalanuvchilariga musiqani o'zi ijro etish naqadar qiziqarligini va muhimligini amaliyotda ko'rsatib o'tadi. Musiqa o'qituvchisi musiqa asbobini yaxshi ijro etishi bilan cheklanib qolmay yaxshi tovush, dirijyorlik jesti bilan musiqa nazariyasini mukammal bilmog'i va ijod qilishi lozimdir. O'qituvchini shaxsiyatini musiqa fanining taqdirini hal qiladi. O'qituvchi bulardan tashqari darslarni kuzatib borishi ham lozimdir. doimiy kuzatishlar sababli o'qituvchi pedagogik mahoratini egallay boshlaydi. U vaziyatni (situatsiyani) baholashga, talabalarning ichki tuyg'ularini sezishga o'rganadi.

“O'zbek musiqa tarixi” fani o'qituvchining so'z mahorati yuksak darajada bo'lishi lozim. O'qituvchini asar haqidagi kirish so'zi va dars mavzusini tushuntirib berishi, talabalarni ajoyib va sehrli sanoat-musiqa olamiga olib kiradi. Va qiziqarli suhbat bilan talabalar diqqatini musiqa mavzularga yo'naltirish mumkin. O'qituvchini musiqa asari haqidagi hikoyasi qisqa va qiziqarli bo'lishi kerak va o'quvchilarni badiiy idrok etishga erishtirishi lozimdir.

Dars davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan mulokatda bo'lgan usulini qo'lasa, musiqa haqida to'g'ri mulohaza yuritishga, to'g'ri xulosalar chiqarrishga yordam beradi. Suhbat jarayonida ko'proq o'quvchilar baxsga o'qtadilar. Bu faoliyatida o'qituvchi rejissyor singari ularni boshqarib, to'g'ri xulosalarga erishtirilishi lozim. Musiqa darslarning samarali bo'lishi uchun albatta yangi pedagogik texnologiyalar bilan dars olib borish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Боровкова, Н. Д. Общие рекомендации по проведению урока специальности в музыкальной школе (в помощь начинающему педагогу) / Н. Д. Боровкова // Теория и практика образования в современном мире : материалы междунар. заоч. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, февраль 2012 г.). – СПб. : Реноме, 2012. – С. 245–248.

2. Посталюк, Н. Ю. Творческий стиль деятельности: педагогический аспект / Н. Ю. Посталюк. – Казань : Изд-во Казан. ун-та, 1989. – 204 с.

3. Савина, Н. Н. Преодоление подростковой делинквентности посредством креативной педагогики : автореф. дис. ... канд. пед. наук / Н. Н. Савина. – Тюмень, 2010. – 41 с.
4. Санто, Б. Инновация как средство экономического развития : пер. с венг. / общ. ред. Б. В. Сазонова. – М. : Прогресс, 1990. – 296 с.
5. Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М.Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.– Т.: “Нихол” нашриёти, 2013, 2016.–279б.
6. Жураев Б.Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.
7. Нуруллаев Ф. Г. Интерактивные уроки музыки по программы STEAM //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 595-601.

3-SHO'BA

MILLIY TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK FAOLIYAT MAZMUNI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI

O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARI VA HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

P.f.n., prof. Azimova Nasiba Ergashovna

Buxoro Davlat universiteti “Pedagogika” kafedrası

Ergasheva Azima -BuxDU talabasi

Mamlakatimizda istiqloqlning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi - Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarning ham mantiqiy davomi, ham uni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Qarorning eng muhim jihatlaridan biri, unda oliy malakali mutaxassislar tayyorlashda xalqaro standartlar mezoniga rioya qilish, uning darajasida shart-sharoit yaratish, ruhi va talabiga mos zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Shunday ekan ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog kadrlar o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi kerak. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” g'oyalarini amaliyotga tadbiiq etish,